

**Jumanazarova Sevinch G‘ulom qizi , Esanova Xurshida O‘ralbek qizi  
Guliston Davlat Pedagogika instituti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti  
Musiqqa ta‘limi yo‘nalishi 2-kurs talabalari**

## **TA‘LIM JARAYONLARIDA FOYDALANILADIGAN QIZIQARLI VA QULAY METODLAR**

**Annotatsiya:** “Metod” — yunoncha “metodos” – “yo‘l” degan so‘zdan paydo bo‘lib, u tadqiq qilish ma‘nosini anglatadi. Ta‘lim metodi ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir. Ta‘lim metodlari – o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy yo‘naltirish yo‘llarini anglatadi. O‘qitish metodlari ta‘lim jarayonida ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi faoliyatining qanday bolishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta‘lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta‘lim metodi o‘qituvchi va ta‘lim oluvchilarning o‘qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yolidir. Ta‘lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog‘liqdir, ya‘ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta‘lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta‘lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to‘g‘ri anglash natijasidir. Ta‘lim materiali ta‘lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig‘iga bog‘liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bolsa, ta‘lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog‘liq bo‘ladi. Pedagogika fani maktablar va ta‘lim beruvchilarning ilg‘or ish tajribalarini umumlashtiradi, an‘anaviy ta‘limning ilmiy asoslarini ko‘rsatib beradi, o‘qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** Ta‘lim metodlari, og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, BBB metodi, Ven diagrammasi metodi, Klaster metodi, Aqliy hujum metodi, Rotatsiya metodi, Baliq skeleti metodi.

**Аннотация:** “Метод” происходит от греческого слова “методос” — “путь”, что означает исследование. Метод обучения – это совместная деятельность, направленная на достижение определенной цели педагогом и учащимися в образовательном процессе. Означает способы обучения. Методы обучения – это деятельность учителя и обучающегося в образовательном процессе, способы организации и вести процесс обучения, и какие действия совершают обучающиеся в этом процессе. Также образовательный метод – это способ теоретической и практической познавательной деятельности, направленный на выполнение задач учителя и учащихся. Методы обучения зависят от понимания общих закономерностей познания окружающего мира, то есть имеют философско-методологическую основу и являются результатом правильного понимания противоречий образовательного процесса, сущности и принципов образовательного процесса. Учебный материал зависит от логики научной мысли, выраженной в образовательном содержании. Чем меньше теория выражена в педагогических воззрениях, тем меньше от этой теории зависят методы обучения. Наука педагогика обобщает лучший опыт школы и педагогов, показывает научную основу традиционного образования, помогает творчески искать современные эффективные методы обучения.

**Ключевые слова:** Образовательные методы, устный, наглядный, практический, метод BBB, метод диаграммы Венна, кластерный метод, метод мозгового штурма, метод вращения, метод рыбьего скелета

**Abstract:** “Method” comes from the Greek word “methodos” – “way”, which means research. The educational method is a joint activity aimed at the achievement of a specific goal by the teacher and students in the educational process. Means the ways of learning. Teaching methods are the activities of the teacher and the learner in the educational process, how to organize and conduct the teaching process, and what actions the learners perform in this process. determines the need. Also, the educational method is a way of theoretical and practical cognitive activity aimed at fulfilling the tasks of the teacher and students. Educational methods depend on understanding the general laws of knowledge of the surrounding world, that is, they have a philosophical methodological basis and are the result of a correct understanding of the contradictions in the educational process, the essence and principles of the educational process. Educational material depends on the logic of scientific thought expressed in the educational content. The less the theory is expressed in pedagogical views, the less the educational methods depend on this theory. The science of pedagogy summarizes the best practices of schools and educators, shows the scientific basis of traditional education, and helps to creatively search for modern, effective methods of teaching

**Key words:** Educational methods, oral, visual, practical, BBB method, Venn diagram method, Cluster method, Brainstorming method, Rotation method, Fish skeleton method

## **KIRISH**

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo‘linadi. O‘quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o‘zi esa axborot uzatish, qabul qilish, anglash va o‘quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so‘z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og‘zaki metodlar; hikoya, ma‘ruza, suhbat va boshqalar; ikkinchi guruh metodlariga o‘quv axborotlarini ko‘rgazmali uzatish va ko‘rish orqali qabul qilish metodlari - ko‘rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; uchinchi guruh metodlariga o‘quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, obyektivlik, induktiv va deduktiv usullaridan foydalanildi. Ta‘lim jarayonlarida foydalaniladigan qiziqarli va qulay metodlar obyektiv ochib berildi. B. Xodjayev, A.Choriyev, Z.Soliyeva “Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi”, “Interfaol ta‘lim usullari” kitoblari metodologik manba bo‘lib belgilandi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ta‘lim metodlari tarkiban o‘qitish metodlari va o‘qish metodlaridan iborat. O‘qituvchi bilimlarni og‘zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi; o‘qituvchi mustaqil ish topshirsa, o‘quvchilar bajarishadi. Bilimlarni og‘zaki bayon etish, mustaqil ishlash kabilar o‘qitish metodlari bo‘lib, ular vositasida didaktik vazifalar (bilimlarni o‘rganish, mustahkamlash, takrorlash va sh.k) hal etiladi.

Venn diagrammasi-ikkita bir-biri bilan kesishgan doiralar ko‘rinishidagi sxema, faktlar, hodisalar, g‘oyalar, tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo‘llaniladi. Aylanma diagramma. Har bir doiradagi bo‘sh joylar tafovutlarni yozish uchun ishlatiladi; doiralar kesishganda hosil bo‘lgan umumiy maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning (faktlar, tushunchalar va hokazolar) umumiy jihatlarini qayd qilish uchun foydalaniladi. Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda savollarni

ma'lum o'quv mavzusiga va har qanday yoshdagi o'quvchilar guruhlariga moslashtirishda ham individual, ham guruh bo'lib ishlash uchun qo'llaniladi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, predmetlar, hodisalar va shu kabilarning ham farqi, ham o'xshash jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

"BBB" metodi bu B-B-B sxemasi bo'yicha o'quvchilar bilan mavzuni mustahkamlash uchun ijodiy ishlash metodi. O'quvchilar guruhlariga bo'linishadi. O'tilayotgan mavzu yoki tushuncha yuzasidan har bir guruh o'zaro hamkorlikda «Taxminan nimani bilamiz?» ustunini to'ldirishadi. Doskadagi birinchi ustunga esa barcha guruhlarining javoblari jamlanadi. Berilgan javoblar toifalar bo'yicha guruhlanadi. Keyin har bir guruh a'zolari o'zaro kelishilgan holda «Bilishni xohlayman» ustuniga mavzu yuzasidan o'zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi. Doskadagi ikkinchi ustunga esa barcha guruhlarining savollari jamlanadi. Shundan so'ng talabalar mavzu yuzasidan matn (ma'ruza) bilan to'liq tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchi «Bildik» ustuniga yoziladi. Talabalarni qiziqtirgan qaysidir savolga javob chiqmay qolgan bo'lsa, uni o'qituvchi to'ldirishi yoki uyga vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin.

«Aqliy hujum» biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo'llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a'zosi fikrini tezda yig'ish va umumlashtirish imkonini beradi. "Aqliy hujum"ni, o'quvchilar muammo haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan hollarda ham qo'llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy sharoitda aqlga kelmaydigan antiqa yechimlar topish imkonini beradi.

"Aqliy hujum" usulidan foydalanilganda, odatda mashg'ulot ikki bosqichdan iborat bo'ladi: birinchi bosqich - taklif bosqichi ("aqliy hujumning o'zi) va ikkinchi bosqich - tahlil hamda yechimlarni saralash bosqichi. Bosqichlar o'rtasida kichik tanaffus berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Anketa metodi [1] (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1)ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar); 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman»

yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar). Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir: 1)anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim; 2)anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmashligi kerak; 3)anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur; 4)anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur; 5)anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur; 6)anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Klaster metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar yuzasidan erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish

uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obyektgga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. "Klaster" metodi aniq obyektgga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi.

Test metodi. [2] Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat: 2) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar); 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzda javob

variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar). 3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar). Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalami turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga

muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejallishi bilan tavsiflanadi, Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish

imkoniyaga ega

Rotatsiya metodi- bu metod mashg'ulotlarda mavzularini har bir kichik guruh alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruh tahlil qilib ko'rishi. Har bir kichik guruh 30 daqiqa davomida 3 ta topshiriqni muhokama qiladi, keyin 15 daqiqa davomida esa muhokama birgalikda o'tkaziladi.

Baliq skeleti metodi- muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yechib ko'rishga imkon beradi. Strategiya: 1) bir varoq oq qog'ozda baliq skeleti chiziladi; 2) yuqoridagi suyagiga muammo ifodalanishi, pastdagiga esa – ushbu muammo mavjudligini isbotlovchi faktlar yozib qo'yiladi; 3) to'ldirilgan sxemaning taqdimoti .

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Metodlarning turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Metodlarda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat. Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Metodlar orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur. Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni

takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. “Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi”-kitobidan, 118-119-122-betlar, mualliflar: B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva
2. <https://manzura90.zn.uz>- saytidagi ma'lumotlardan
3. “ Ta'limning interfaol metodlari vositasida dars o'tish bo'yicha o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar”- kitobidan
4. “Interfaol ta'lim usullari”- kitobidan
5. <https://baxtiyor.uz>- saytidagi ma'lumotlardan